


TASDIQLAYMAN



“Sharq’unko‘mir” AJda 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

XISOBOT

“Sharq’unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

1. “Sharq’unko‘mir” AJda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar Dasturi ijrosi.

Xisobot davrida dasturda jami 11 tadbir belgilangan. Barcha tadbir bajarilishi doimiy tarzda amalga oshirildi. Korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me'yorlarga va qonun hujjatlariga amal qilishga doir jamiyat Komplayens va korrupsiyaga qarsh kurash xizmati tomonidan yig'ilishlar o'tkazildi. Jumladan Boshqaruv apparati xodimlari hamda Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan xodimlar O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali ishlashini ta'minlash mavzusida chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida o'qitildi. 9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan “Jchiq eshiklar” tadbirida Huquqni muhofaza qilish xodimlari, Mahalla fuqarolar yig'ni raislari, Diniy ulamo vakillari hamda axborot vositalari vakillari qatnashib “Sharq’unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyani oldini olishda olib borilayotgan chora-tadbirlar borasida ma'lumot oldilar.

“Sharq’unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xolatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefoni va telegram bot kanali, rasmiy veb saytida esa “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo'yicha alohida sahifa ochildi va unda sohaga oid me'yoriy hujjatlar va yangiliklar sohaga doir ma'lumotlar yoritilib borilmoqda.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki-me'yoriy hujjatlar, ularni yangi qabul qilingan normalarga muvofiqligi hamda ular bilan xodimlarni tanishganlik holati.

Xisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar, tartib qoidalar, ya'ni “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom”, “Odob-axloq kodeksi”, “Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom”, “Xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma”, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma”, “Kontragentlarni

tekshirishga oid yo‘riqnoma”, “Tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati”, “Davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”, “Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti”, “Korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament”, “Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”, “Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom”, “Sovg‘alar berish va olish, biznes-tadbirlarnitashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo‘yicha siyosati”, “Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati” kabi sohaga oid ichki me‘yoriy xujjatlar qabul qilindi va o‘rnatilgan tartibda barcha xodimlarga tushuntirildi va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

2024 yil 14-noyabr sanasi bilan “Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshgi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rahbatlantirish tartibi to‘g‘risida nizom tasdiqlandi va ishchi xodimlarga nizom tartibi to‘g‘risida ma‘lumot berildi.

3. Korrupsion xavf-xatarlar xaritasi tuzilganligi va unda yuqori darajadagi xavflarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilganligi va uni natijadorligi.

“Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsion xavf-xatarlar xaritasi tuzilgan bo‘lib unda “Yuqori” darajadagi xavflarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga asosan korrupsiogen omillarni minimallashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti talablariga muvofiq korrupsiogen xavf-xatarlar “Yuqori”, “O‘rta” va “Past” darajalarga taqsimlandi. Unga ko‘ra, 130 ta lavozimlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 8 tasida korrupsiya xavf-xatari “Yuqori” bo‘lgan lavozimlar, “23 tasi O‘rta”, “99 tasi Past”lavozimlar ekanligi qayd etildi.

“Sharg‘unko‘mir”AJ korrupsiyaga qarshi kurashish asosida ichki audit o‘tkazish Dasturiga muvofiq 2025-yilning 07-fevral kunidagi 36-son buyrug‘i asosida, 2025-yilning 11-mart 58-buyruq, 2025-yil 08-aprel 82-sonli buyruq, 2025-yil 8-may 96-buyruq, 2025-yil 10-iyun 116-buyruq, 2025-yil 3-iyul 134-buyruq, 2025-yil 5-avgust 163-buyruq, 2025-yil 8-sentabr 185-buyruq, 2025-yil 10-oktabr 211-buyruq, 2025-yil 12-noyabr 226-buyruq, 2025-yil 10-dekabrda 246-sonli buyruqlar asosida tegishli bo‘lim va uchastkalarda ichki audit o‘tkazildi.

Shuningdek “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida xavf-xatari eng ko‘p moil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllanitrilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqildi.

4. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda. "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 18-noyabrdagi 288-son buyruq bilan tasdiqlangan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom" talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf qilish maqsadida jamiyatning barcha xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan. Shu maqsadda "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining jami 632 ta ishchi-xodimi 2025-yil uchun manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) to'ldirishdi.

To'ldirilgan deklarasiyalar Odob-axloq komissiyasi tomonidan tahlil qilinganda 1ta haqiqiy va 23 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi mavjud ekanligi aniqlandi. "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan ishchi-xodimlarda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbir dasturi ishlab chiqildi. Chora-tadbir asosida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini minimallashtirish choralari ko'rildi. 2025 yil 20 fevralda "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan ishchilar bilan "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi NIZOM" asosida o'quv seminari tashkil etilib 20-son bayon bilan ro'uxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 12-sentyabrdagi topshirig'i "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasiga asosan davlat xizmatchilari ishdan tashqari vaqtda tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan (pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari) shug'ullanishidagi cheklovlarni belgilash uchun jamiyatning 1 ta xodimi boshqaruv apparatidan uchastkaga rotatsiya qilindi.

5. Shartnomalarda korrupsiyaga qarshi bandlar kiritilganligi.

"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati barcha tuzilgan shartnomalar (elektron do'kon, to'g'ridan-to'g'ri) mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi bandlar qo'shilishi amalga qo'llandi.

6. Xaridlar jarayoni, ularni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi , o'rganilgan kontragentlar soni.

"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025-yilning 31-dekabr xolatiga jami 71 633,1 mln. so'mlik jami 1531 ta shartnoma rasmiylashtirilgan. Shulardan 1347 tasi xt-xarid.uz (elektron do'kon), 39 tasi xt-xarid.uz (milliy do'kon), 9 tasi xt-xarid.uz (tanlov), 24 tasi xarid.uz (elektron do'kon), 25 tasi xarid.uz (milliy do'kon), 22 tasi cooperation.uz (elektron do'kon), 1 tasi client.uzex.uz (spot), 35 tasi xarid.uzex.uz (to'g'ridan to'g'ri), 29 tasi xarid.uzex.uz (yagona etkazib beruvchi). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida shartnoma imzolangan. To'g'ridan to'g'ri yagona etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha bandlar kiritilmoqda.

Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni kontragentlarni o'rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlar 15 ta shartnomada amalga oshirildi.

Xisobot davrida davlat xaridlari jarayonida soxta xujjatlarni taqdim etgan yoki ayni bitta lotda ishtirok etgan afillangan shaxslar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanmadi.

7. Xavf-xatari yuqori funktsiya va yo'nalishlarda o'tkazilgan monitoring natijalari.

“Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatining “Sharg‘unko‘mir”AJ korrupsiyaga qarshi kurashish asosida ichki audit o'tkazish Dasturiga muvofiq 2025-yilning 11-mart 58-buyruq, 2025-yil 10-iyun 116-buyruq, 2025-yil 8-sentabr 185-buyruq hamda 10-dekabrda 246-sonli buyruqlar asosida ichki auditlar “Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari”, "Xodimlarni boshqarish" bo'limi, "Xodimlarni boshqarish" bo'limi boshlig'i, "Buxgalteriya" bo'limi, "Buxgalteriya" bo'limi boshlig'i, "Ichki va tashqi xaridlar" bo'limi, "Ichki va tashqi xaridlar" bo'limi boshlig'i, Markaziy ombor mudiri, "Bosh audit"xizmati, "Mehnat va ish haqi" bo'limi, "Mehnat va ish haqi" bo'limi boshlig'i xavf-xatari yuqori funktsiya va yo'nalishlarida amalga oshirildi. Monitoring natijasida kamchiliklar korrupsiogen omillar aniqlanmadi. Xisobot davrida jamiyat ishchi xodimlariga “Sovg‘alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati”ga amal qilingan xolda, kasb bayramlari, 8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni, yubiley yoshlari (tug'ilgan kun)da sovg‘alar taqdim etilgan.

Pul mukofotlari va ustamalar tayinlash jamiyatning Jamoa shartnomasi hamda jamiyatning qabul qilingan Nizomlariga asosan amalga oshirilib kelinmoqda.

Fuqarolarni ishga olish va kadrlarni tanlash “Sharg‘unko‘mir”AJning 2024 yil 10-yanvardagi 35-sonli buyrug‘i “Sharg‘unko‘mir”AJga kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish tartibiga asosan amalga oshirilmoqda.

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari asosida xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha ogohlantirish bandlari kiritilgan.

Ichki audit asosida Jamiyat xodimlariga tayinlanayotgan mukofot pullari ustamalar o'rganilganda jamiyatning ichki nizom tartib tamoillari asosida amalga oshirilib kelingan va korrupsiogen omil aniqlanmagan. Korxonadagi xaridlar jarayoni amaldagi qonunchilik xujjatlari hamda “Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatining xaridlarni amalga oshirish Nizomi asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

8. Hisobot davrida aloqa kanallaridan kelib tushgan murojaatlar va ularni ko'rib chiqish tartibi.

“Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatida xisobot davrida aloqa kanallari orqali korrupsion xolatlar bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

9. Aniqlangan qoidabuzarliklar.

“Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatida xisobot davrida korrupsiogen qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

10.Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilagn profilaktik tadbirlar.

“Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatida ishchi-xodimlarni huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olish maqsadida korrupsiya tushunchasi, “Sharg‘unko‘mir”AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish SIYoSATI”, “Manfaatlar to‘g‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi NIZOM” talablari, “Odob-axloq KODEKSI”, “Sovg‘alar berish va olish SIYoSATI va qoidabuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi jarayoni”, Qonunchilik normalari Korrupsiyaviy harakatlar va ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar va sodir etilgan korrupsiyaviy omilning oqibatlari mavzularida 2025 yil 20-fevral, 24-mart, 15-aprel, 28-aprel, 21-may, 23 may, 9 iyul, 29 avgust 25 sentabr, 27 oktabr, 4 noyabr, 28 noyabr, 3 dekabr kunlari profilaktik tadbir, o‘quv seminarlari o‘tkazildi. Tadbirlarda Komplayns va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati boshlig‘i, Sariosiyo tuman IIB birinchi muovini podpolkovnik Raxmonqulov Baxtiyor Mamarajabovich, Boysunobod maxalla fuqarolar yig‘ini raisi Xursanov Botir Norqulovich hamda Xoji Abdurauf Ansori Jome masjidi imom xatibi Axliddin Nuriddinovlar ishtirok etishdi.

**Komplyens va korrupsiyaga qarshi
kurash xizmati boshlig‘i**

Sh.O.Xalilova